

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**QIYOSIY
ADABIYOTSHUNOSLIK:
O‘TMISHI, BUGUNI,
ISTIQBOLLARI**



**2020-yil
6-noyabr**

VI. ILMY AXBOROTLAR

Mavlyuda GADDOEVA. Conceptual analysis of phraseological units with the somatism component in the system of non-related languages	223
D.Sh. SHARIPOVA, M.A. GAYBULLAYEVA, Z. ADIZOVA. Methods of developing skills and abilities in learning a foreign language.....	227
Dilnoza SHARIPOVA, Malika OBLOKULOVA, Dilnoza ASKAROVA. Some analysis and considerations about symbols.....	229
Rano AKHMEDOVA. Classification and lexical-semantic features of somatic phraseological units related to culture in english and uzbek languages	232
Rano AKHMEDOVA, Inobat NARZIYEVA. Classification of authentic materials and the role of their usage in foreign language lessons.....	234
Фирюза НАРЗУЛЛАЕВА. Инглиз ва ўзбек тилларида “кўз” сўзининг полисемантиклиги.....	236
Dilnoza HABIBULLAYEVA. Jahon adabiyoti va tibbiyot	239
B.S. ABDURAZAKOV Some types of semantic correlates of phraseological configurations and its structural-semantic varieties	242
R.A. ACHILOVA, M.T. BABAYEV, O.A. ATAMURADOVA. Benefits of grammar in english classes	244
Dilshoda MAMATOVA. O'zbek talabalarining xitoy tili miqdor to'ldiruvchisini o'rganishini tadqiq qilish.....	246
O'g'iloy MAVLONOVA. Vaziyatli kinoya va misollar orqali uning tahlili	249
Shahnoza KARIMOVA. Poetik sintaksis haqida	251
Dilnoza ZIYAYEVA. Syntactical characteristics of english speech verbs.....	254
Рисолат АЧИЛОВА. Антономазияларнинг ўзбек бадий асарларидаги ўрни	258
Нозима ДЖУМАЕВА. Инглиз ва ўзбек эртакларида ўхшаш вазифали сеҳрли предметлар талқини.....	261
Shahnoza KARIMOVA, Dinara IBRAGIMOVA. Og'irlik va uzunlik ma'nosidagi imnerativlar	264
Мохичехра НИЯЗОВА. Инглиз ва ўзбек никоҳ туйларида айтиладиган олқишларнинг гоъвий-шаклий муштараклиги	266
Меҳринисо ОЧИЛОВА. Электрон лугат – лексикография ривожининг янги босқичи маҳсули	268
Nilufar OCHILOVA. “Do`nan” hikoyasida “ot” obrazi.....	274
Диёра БОБОНАЗАРОВА. Дискурс анализ – как современный метод интерпретации информации	276
Zarnigor KHAYATOVA. Relationship between uzbek and english literature: ethno-cultural specificity of concept studies	278

“DO‘NAN” HIKOYASIDA “OT” OBRAZI

*Nilufar OCHILOVA,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi*

Аннотасија. Ушбу мақолада о‘збек адабиётининг юрқин намойондаси юзувчи Туроб То‘ланинг “До‘нан” ҳикойасидagi “от” тинсoli бadiй образ сифатida таһлиl қилинади.

Тayanch so‘zlar: Hikoya, do‘nan, obraz, “ot” timsoli, “Tulpor” qo‘shig‘i.

Аннотация. В статье обсуждается образ лошади в повести “Дунан” видного деятеля узбекской литературы Туроб Тула

Ключевые слова: Повесть, жеребёнок, образ, отражения лошади, песня “Тулпор”.

Otlar o‘zining sadoqati bilan inson yuragidan chuqur joy olgan jonivorlar sirasiga kiradi. E‘tibor bersak, adabiyotda - xoh jahon bo‘lsin, xoh o‘zbek adabiyoti bo‘lsin, boshqa jonivorlarga qaraganda otlar haqida ko‘pgina asarlar, hikoyalar, qissalar va hatto romanlar ham yozilgan. Jahon adabiyotida Ch. Aytmatovning “Alvido, Gulsari!”, Anna Syuvelning “Qora tulpor”, S.Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” kabi jahon adabiyoti durdonalarida “ot” jonivori taqdiri mahorat va qalb qo‘ri bilan qalam tebratilgan. Jumladan, o‘zbek adabiyotida T. Murodning “Ot kishnagan oqshom”, Sh. Xolmirzayevning “Ot egasi”, T. To‘laning “Do‘nan” kabi qissa va hikoyalari borki, o‘zbek kitobxonlarining yuragidan chuqur joy olishga ulgurgan. Quyida biz Turob To‘laning “Do‘nan”i haqida to‘xtalmoqchimiz.

Turob To‘laning “Do‘nan” hikoyasi “Yetti zog‘ora qissasi” nomli nasriy asarining bir qismi hisoblanadi. Unda yozuvchi otning o‘zining yosh egasiga bo‘lgan mehri, vafosi va aksincha, yosh ega – Baxshillaning Do‘naniga bo‘lgan mehr-muhabbati haqida so‘z boradi. Baxshilla Do‘nanga jonivor kabi emas, balki inson sifatida, yaqin do‘sti, kerak bo‘lsa, inisi kabi qarardi. Uning uchun eng yaqini shu vafodor do‘sti – Do‘nani, uning bor butun dunyosi shu jonivori edi. Asar qahramonining o‘zi shunday ta‘riflaydi: “Yoshligimda mening bir chiroyli, kelishgan do‘nanim bo‘lardi. Baqavli o‘rtog‘im edi, birga o‘sdik, uni onasining tagidan buvam bilan ikkalamiz birga qabul qilib olganmiz. Onasining qornidan tushiboq dingillab menga qaragan, bo‘ynini bo‘yninga solgan, ingichka-ingichka oyoqlari titrab turardi. Oyoqlarining to‘pig‘ida olasi bor edi, peshanasida qashqasi. Ko‘zlari katta-katta, kiyiknikiga o‘xshagan chiroyli. Buvam bu seniki dedilar, katta bo‘lganida ham men boqdim, mendan boshqadan yem yemasdi, suvga ham meni undardi, birga borardik o‘rta ariqqa, o‘rta ariqdan suv ichmay turib olardi, Toshloqqa borardik, Toshloqdan ichardi, erinmasdan cho‘mltirardim, uzoq yuwardim... Faqat men minardim uni. Juda yugurik chiqdi, chavandozlar ko‘zmunchoq taqib qo‘y deyishdi, ko‘zmunchoq taqib qo‘ydim, ko‘z tegmasin deb.” Baxshilla otining fe‘l-atvorini, odatlarini, nimani yaxshi ko‘rishu-yu nimani yoqtirmasligini miridan sirigacha bilar, uning haqiqiy g‘amxo‘ri hisoblanadi. Do‘nanni Baxshilla shunday tasvirlab berganki, u ko‘z oldingizga yaqqol namoyon bo‘ladi, go‘yo o‘zingizni sadoqatli yoron otning yonida turgandek tasavvur qilasiz. Baxshillaning otni eng yaqin kishisi kabi ko‘rishiga yana bir sabab – Do‘nan bolani bir o‘limdan

qutqaradi. Muallif bu hodisani shunday tasvirlaydi: “O‘zim g‘aram soyasida, g‘ir-g‘ir shabadada mast bo‘lib yotdim, nafas o‘tmay uxlab qolibman. Bir mahal uyg‘onsam, oftob og‘ib qolgan, Do‘nanboy, mashoq qayoqda, o‘sha turgan joyida hali ham bir xil holatda turipti. Hayron bo‘lib o‘rnimdan turdim, bir narsa demoqchiday boshini baland ko‘tarib kishnadi, faqat orqa oyoqlari bilan tepkilanadi-yu, oldingi oyoqlarini yerdan uzmaydi. Yugurib oldiga bordim, bordim-u oyoqlari ostiga qarab qotib qoldim, oldingi chap oyog‘iga qop-qora, chipor cho‘lilon o‘ralib yotibdi, o‘ng oyog‘i esa uning boshini majaqlagancha ezib turipti. Borib oyoqlaridan majaqlangan ilonning o‘rovini yechib tashladim, shundagina o‘ng oyog‘ini uning boshidan oldi. U endi mashoq tera boshlaganda bu ilonni ko‘rgan, menga kelayotganini bilib g‘archcha bosgan”. Ushbu satrlarni kitobxon o‘qiy turib, etlari jimirlab ketgan bo‘lsa, ajabmas. Chunki haqiqiy do‘stgina, o‘rtoqgina o‘zini shunday mardonavor tutadi. Baxshillanining bu voqeadan keyin Do‘nanboyga, ha, aynan, Do‘nanboyiga – eng yaqin erka, fidoyi do‘stiga bo‘lgan mehri yanada oshadi. Axir jonivor uni soatlab oyog‘idagi zaharli ilon bilan egasining turishini kutadi. Haqiqiy inson shunday jasoratga qodirmikan deb o‘ylanib qolasan kishi. Muallifning otini Do‘nanboy deb alqashi ularning o‘rtasidagi munosabat do‘stlikdan-da yuqori turishiga hech shubha yo‘q.

Qarangki, Baxshilla va Do‘nan do‘stligiga ham ko‘z tegadi, ularni bir-birlaridan ayiradilar. Ayрилиq ikkalasini ham og‘ir ahvolga soladi. Do‘nanni chorpo‘latlik mehmon yoqtirib qolib, uni o‘zi bilan olib ketadi. Chunki turbatliklarda bir odat borki, ular shu odatga kam-ko‘stsiz amal qilishadi, ya‘ni uyga kelgan mehmon mezbon uyida nimaniki yoqtirib qolsa, o‘shani sovg‘a qilib yuborishadi. Baxshilla bu haqida xabar topgach, dunyo ko‘ziga qorong‘u bo‘lib ko‘rinadi. Asar qahramonlarining ushbu holatini muallif quyidagicha tasvirlaydi: “Hech ovqat tilamay qo‘ydi tabiatim, ishtaham bo‘g‘ilib qoldi, uch kunda qiltiriq bo‘lib qoldim, oyim qo‘rqib ketdilar, o‘zim ham. Dadamning ko‘rsatmagan tabibi qolmadi, yotib qoldim. Axiri qishloq oqsoqoli fatvo beripti, borib so‘rang, qaytib oling, deb. Dadam bu ishni qilolmayman, deptilar. Kelib hammasini aytib, boshimda yig‘ladilar, “Bolam, menga, o‘zingga, onangga rahming kelsin, o‘zingni asra”, dedilar. Kechalari bilan yig‘lab chiqardim, ko‘zim ilinmasdi, ilinganda ham faqat Do‘nanni ko‘rardim, xolos. Bir kun u ko‘zimga shunday ko‘rinib ketdiki, qo‘rqib ketdim, xuddi menga o‘xshab u ham ozib ketgan edi, qovurg‘alari sanalib qopti bechoraning. Hadeb, menga egilib, yostig‘inning ustida yig‘lardi, duv-duv yosh oqardi obu ko‘zlaridan, tik turolmay oyoqlari qaltirardi. Uyg‘onishga harakat qilaman-u, uyg‘onolmayman. Dadam, oyim, hammalari tepamda, uni yomon ko‘rgan akamgacha tepamda yolvorishardi “tur, qara, axir, uning o‘zi keldi, boshingda yig‘layapti” deb. Qarasam, haqiqatan ham tushim emas, o‘ngim ekan, u ham chidolmapti bechora, menga o‘xshab hech ovqat yemapti, suv ichmapti, faqat meni o‘ylapti, kishnayveripti, ozib ketipti. Mehmunning rahmi kepti-yu, olib kelib tashlab ketipti...”. Shu o‘rinda Ro‘ziboy Jumanovning “Tulpor” nomli qo‘shig‘idan parcha keltirishni o‘rinli deb hisobladik, sababi ushbu qo‘shiq aynan Bahshillaga o‘xshagan otni jon dilidan sevuvcular uchun atalgandek.

*Bir tulporim bor edi, hamma unga zor edi.
Og‘aynilar ot menga, ham do‘stu yor edi.
Uyimizga bir kuni, qarindoshlar kelishdi.
Chaqmoq tuyoq tulpordan ayirmoqchi bo‘lishdi.
Otam: “Ulg‘ayding, o‘g‘lim, uylanmasang or dedi.
Qiz turganda yigitga, otga nima bor dedi.”
Ot oldidan boshlandi, chimildiqqa yo‘lakcha,
O‘ksinma, yor, ne qilay, otga mehrim bo‘lakcha.*

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, muallif bejizga hikoyani “Do‘nan” deb nomlamagan. Ma‘lumotlarga qaraganda, to‘rt, besh yoshli otlar do‘nan deb ataladi va ot bu hikoyada asosiy

obraz hisoblanib, uning insonga bo'lgan sadoqati, mehr-oqibati, xaloskoriligiga yana bir bor urg'u berilyapti.

Ot hamisha insonning yaqin do'sti bo'lib qolaveradi. U haqida hali yana ko'pgina asarlar bitilaveradi, otlarga bo'lgan qiziqish kelajak-avlodni ham befarq qoldirmaydi.

ДИСКУРС АНАЛИЗ – КАК СОВРЕМЕННЫЙ МЕТОД ИНТЕРПРЕТАЦИИ ИНФОРМАЦИИ

*Диёра БОБОНАЗАРОВА,
Преподаватель КарГУ*

В сфере лингвистики главным действием является интерпретация: интерпретация текста, интерпретация разговорной речи и интерпретация любого вида коммуникаций между людьми. Коммуникативная интерпретация между людьми, в лингвистике называется – дискурс анализ.

Дискурс анализ – это совокупность аналитических методов интерпретации различного рода текстов или высказываний как продукт речевой деятельности. Непосредственно, слово дискурс переводится как “Discours” – (франц.) от латинского ‘discursus’ – движение, беседа, разговор. Изначально слово “дискурс” во французской лингвистике обозначало “речь” вообще, или “текст”.

Известный филолог, лингвист А. Николаева выделяет основные значения слова “дискурс”:

- диалог;
- устно-разговорная форма текста;
- группа высказываний, связанных между собой по смыслу;
- связный текст;
- речевое произведение как данность, устная или письменная.

Со временем, слово “дискурс” стало давать более обширную дефиницию, кроме как просто текст. Исходя из этих критерий, я предпочла поделить дискурс на такие виды как: визуальный, разговорный, вербальный и текстуальный дискурс. Визуальный – это анализ информации который мы получаем визуально, то есть мы видим объект или какую-либо ситуацию, тут же идет сигнал в мозг и сознание выдает нам дискурсивный анализ. Разговорный – это когда мы анализируем информацию, которую слышим или передаем слушателю. Вербальный – это анализ каких-либо действий или жестикующий использованной в ходе коммуникаций. И наконец, текстуальный – анализ информации в виде текста. Любая информация подаёт сигнал в сознание человека и подталкивает его логическому доводу, то есть, совершается мыслительная посылка.

Дискурс играет ключевую роль в построении образа нашей вселенной многообразными способами. То, как мы говорим о вещах - наши фразы, наши акценты, то что мы выделяем – вызывает определенные ощущения у других людей. Таким образом мы оказываем влияние на восприятие и понимание окружающих, а это в своей очереди,